

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 21-noyabr, № 240 (8863) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL IQTISODIYOT” YILI

YANGI O‘ZBEKISTONIMIZ YANGI PARLAMENTI BILAN BIRGA O‘Z TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI BOSQICHIGA QADAM QO‘YMOQDA

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisi bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so‘zladi.



Parlament, Hukumat a’zolari, markaziy muassasalar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan diplomatik korpus vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashgan majlisni Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov olib bordi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangradi.

Majlisda deputatlar tomonidan kun tartibi tasdiqlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq ilk bor quyi palatada Bosh vazir lavozimiga nomzod masalasi ko‘rib chiqildi.

Ma’lumki, Vazirlar Mahkamasi Asosiy Qonunimizning 116-moddasiga muvofiq shu yil 19-noyabr kuni Oliy Majlis oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilgan edi.

Konstitutsiyamizning 118-moddasiga ko‘ra Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladi.

➡ 3

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI NOMZODINI KO‘RIB CHIQISHGA BAG‘ISHLANGAN MAJLISIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!

Qadrli majlis ishtirokchilari!

Bugun yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq ilk bor quyi palatada Bosh vazir lavozimiga nomzod va Hukumatning kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ko‘rib chiqib, tegishli qaror qabul qilishimiz zarur.

Bu masalaning naqadar muhimligi, o‘ylaymanki, hammamizga yaxshi ayon. Nega deganda, mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik va joriy vazifalarni amalga oshirishda, barcha bo‘g‘indagi ijro organlari, avvalo, Hukumat va uning rahbari zimmasidagi mas’uliyat hozirgi murakkab zamonda har qachongidan ham ortib bormoqda.

Shu bilan birga, bugun mutlaqo yangi vakolat va vazifalarga ega bo‘lgan Hukumat shakllanmoqda. Bu fikrni Konstitutsiya darajasida birinchi marta kambag‘allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi, investitsiya, ekologiya kabi muhim yo‘nalishlarda Vazirlar Mahkamasining majburiyatlari belgilab qo‘yilgani ham tasdiqlaydi.

Xalqimiz bugun ana shunday hal qiluvchi masalalar bo‘yicha yangi Hukumatdan aniq natijalarni kutmoqda.

Asosiy masalaga o‘tishdan oldin o‘tgan 5 yilda har tomonlama puxta o‘ylab qabul qilingan dasturlar ijrosi qanday ta’minlangani haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Avvalo, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi. Aholi jon boshiga daromad 2018-yildagi 1 ming 600 dollardan 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda. Jahon banki 2024-yilda O‘zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o‘sayotgan 3 ta davlat qatoridan joy olganini e’tirof etdi. Kambag‘allik darajasi so‘nggi 4 yilda 23 foizdan 11 foizga tushdi. Bu yil yana 106 ming oila kambag‘allikdan chiqarilib, 9 foizga tushishi kutilmoqda.

Eksport qariyb 2 barobar o‘sib, ilk bor 25 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralarimiz esa 40 milliard dollardan oshdi. O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 6 karra ko‘payib, buning hisobiga 1,5 million yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratildi. Yalpi ichki mahsulotda investitsiyalar ulushi 30 foiz darajasida ta’minlangani iqtisodiyotimiz rivoji uchun kelgusi yillarda ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Ilgari to‘liq davlat tasarrufida bo‘lgan sohalar, ya’ni energetika, kimyo, aviatsiya, geologiya, metallurgiya, mashinasozlik, ta’lim va tibbiyotda xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga keng yo‘l ochganimiz ularning rivojida kuchli omil bo‘ldi.

Ayniqsa, energetika sohasida tom ma’noda tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi hajmi 1,5 karra o‘sib, 80 milliard kilovatt-soatga yetgani ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi. So‘nggi uch yilda umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Muqobil energiya ulushi o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘paydi.

Yana bir muhim o‘zgarishga e’tiboringizni qaratmoqchiman. O‘tgan davrda 25 mingdan ziyod xususiy bog‘cha, 70 ga yaqin nodavlat oliygoh tashkil etilib, qamrov maktabgacha ta’limda — 74 foizdan, oliy ta’limda esa — 39 foizdan oshdi.

➡ 2

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN LOYIHALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-noyabr kuni Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmushi farovonligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Samarqand mamlakatimiz markazida joylashgan, savdo, sanoat, turizm, transport va agrar tarmoqlar yaxshi rivojlangan hudud. Davlatimiz rahbarining 2023-yil avgustdagi tashrifi chog‘ida belgilangan vazifalar birin-ketin bajarilmoqda.

Endi yangi-yangi marralar olish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, 4,1 milliard dollarlik 120 ta loyihani amalga oshirish imkoniyati aniqlangan.

➡ 3

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

A.N. ARIPOVNI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOSH VAZIRI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 20-noyabrdagi qarori bilan Bosh vazir lavozimiga A.N.Aripov ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq **Abdulla Nigmatovich Aripov** O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 20-noyabr

Iftixor

VATANGA KO‘Z TEGMASIN!

Sizni tasbeh donasidek saraladi xalqimiz,
Lochin bo‘ling, burgut bo‘ling, bulut bo‘lib qalqingiz,
Navro‘z bo‘lib gullar sochsin yuraklarga qalbingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin xalq noibi, degan mumtoz sharaflar,
Ham Uchinchi Evrilishlar quchoq ochgan taraflar.

Karvonimiz ketayotir uchayotgan qirlardek,
Yollaridan cho‘g‘lar sochib, na’ra tortgan sherlardek,
Donishmandlar har ishda bosh hazrat Xizr pirlardek,
Dov urmoqning keldi gali — tog‘lar bo‘lmoq zamoni,
Kahkashondan oshgay hali Ko‘ragoniy narvoni.

Karvon o‘tar ko‘chalarda bo‘ronlar ham turgaydir,
Och shoqollar chiy-chiylab goh, goh laychalar hurgaydir,
Ko‘rnamaklar chohlar kovlab, to‘siq-g‘ovlar qurgaydir,
Karvonimiz shaytonlarga kulib-shoshib boradir,
Beshik-beshik to‘lqinlanib, to‘lib-toshib boradir.

Ammo hech kim ko‘rmas ravo yarim tishlam nonini,
Asramog‘i kerak har kim o‘z bog‘i, o‘z donini,
“Kerak bo‘lsa yurtim uchun fido qilgum jonimni” —
Degan Sarbon qasamyodi — xalq ontiga aylandi,
O‘zbekiston baland-baland minbarlarga shaylandi.

Ne kuybatki, oqsoch zamin to‘lib ketdi tugunga,
Kechagi so‘z, va’da, qasam to‘g‘ri kelmas bugunga,
Arzi holing aytolmaysan na fason, na yupunga,
Shum zamonda tinchligimiz asraganlar bor bo‘lsin,
Bog‘larida bahor kulsin, cho‘qqisida qor bo‘lsin.

Daryo bo‘ldi bugun yurtning barcha chashma, irmog‘i,
Osmon o‘par qoya bo‘ldi har toshu har qayroQi,
Hilpiraydi ko‘k toqida yulduz to‘la bayrog‘i,
Yulduz to‘la osmonlarga qushdek uchar vaqt keldi,
Osmon to‘la quvonch keldi, osmon to‘la baxt keldi.

Yaratganga ta’zimlarki, tog‘dek bardoshimiz bor,
ToQlar kabi yelkadosh-u do‘st-u qardoshimiz bor,
Sohibqiron bobomizdek tanti Yurtboshimiz bor,
Tanti, jasur Yurtboshimiz — Sarbonga ko‘z tegmasin,
Noiblari o‘ktam, oqil Vatanga ko‘z tegmasin.

Abdusaid KO‘CHIMOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi.

Da’vat

XALQ ISHONCHIN CHIROG‘INI YOQQAN ZOTLAR

Ko‘zlar mudom yashnab ketar dur ko‘rsalar,
Yuzlar yuz bor yorishgaydir gul ko‘rsalar,
Dillar dilni, ellar elni hur ko‘rsalar,
Qadam bosgan dargohida nur bo‘lsinlar,
Deputatlar, senatorlar bir bo‘lsinlar.

Xalq ovozi, Haq ovozi — saylandilar,
Yurt mehriga, el mehriga boylandilar,
Belni bog‘lab, dilni chog‘lab shaylandilar,
Ezgu ishda bir-biriga qo‘r bo‘lsinlar,
Deputatlar, senatorlar bir bo‘lsinlar.

Xalq ishonchin chirog‘ini yoqqan zotlar,
Siyosatning samosidan boqqan zotlar,
Sadoqatning daryosida oqqan zotlar,
Yovlar yuz yil uqolmagan sir bo‘lsinlar,
Deputatlar, senatorlar bir bo‘lsinlar.

Dunyo bilsin, o‘zbek yo‘li — o‘zin yo‘li,
Kelajakni ko‘ra olgan ko‘zin yo‘li,
Yurtboshisin oqil, dono so‘zin yo‘li,
Deputatlar himoyatda zo‘r bo‘lsinlar,
Senatorlar siyosatda zo‘r bo‘lsinlar.

Qondoshlarga, qardoshlarga qanot bo‘lib,
Osiyoning osmonida sabot bo‘lib,
Tinchlik uchun tillashganga najot bo‘lib,
Xush niyatda yetti yotga el bo‘lsinlar,
Deputatlar, senatorlar bir bo‘lsinlar.

Odamzodga baxt-u taxtin bog‘lab bermas,
Ko‘nglini ham to abadga chog‘lab bermas,
Mashaqqatsiz nasibasin yog‘lab bermas,
Tog‘ bo‘lmasa, bag‘ri bahor qir bo‘lsinlar,
Deputatlar, senatorlar bir bo‘lsinlar.

Har bir dilning ibodati Haq uchundir,
Xudo bilar — kim tutundir, kim ustundir...
Haqiqatning himoyati xalq uchundir,
El saylagan deputatlar bir bo‘lsinlar,
El siylagan senatorlar zo‘r bo‘lsinlar.

Mahmud TOIR,
Oliy Majlis Senati a’zosi,
O‘zbekiston xalq shoiri.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI NOMZODINI KO‘RIB CHIQISHGA BAG‘ISHLANGAN MAJLISIDAGI NUTQI

1 Ijtimoiy xizmatlar tizimida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha hududlarda “Inson” markazlari ochilib, ijtimoiy xodimlar tomonidan bevosita mahallalarda aholiga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Parijda bo‘lib o‘tgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida azm-u shijoatli sportchilarimiz chinakam rekord natijalarni qayd etib, jami 39 ta medal, jumladan, 18 ta oltin medalni qo‘lga kiritdilar. O‘zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo‘lmagan bunday yutuqlar barchamizga yangi kuch-Qayrat baxsh etishi tabiiydir.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Jahon miqyosida hukm surayotgan bugungi o‘ta keskin va og‘ir sharoitda yurtimizda tinchlik va hamjihatlikni saqlab, iqtisodiyotimizda barqaror o‘sishni ta’minlab, mana shunday marralarga erishish oson bo‘lmaganini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Mana, o‘zingiz ko‘ryapsiz, aholimiz 37 milliondan oshdi. Kelgusi 5 yilda esa, Xudo xohlasa, 40 milliondan ortishi kutilmoqda. Bunday demografik o‘sish, albatta, katta imkoniyat, lekin, shu bilan birga, bu holat oldimizga yangi-yangi, o‘tkir vazifalarni qo‘yishi ham shubhasiz.

Ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish, ekologiya, energetika, transport, yo‘l, ichimlik suvi ta’minoti, aholini uy-joy bilan ta’minlash kabi muhim sohalarda xalqimizning talab va ehtiyojlari tobora o‘sib bormoqda.

Ana shunday dolzarb muammolarga samarali yechimlar topib, yangicha faoliyat olib borish Hukumat uchun jiddiy sinov bo‘lishi tabiiy, albatta. Bugun Bosh vazir lavozimiga tavsiya etiladigan nomzod ana shu masalalarning barchasini hisobga olib, ularning ijrosini ta’minlash yuzasidan o‘z dasturini taqdim etadi.

Muhtaram do‘stlar!

Biz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida kelgusi yillar uchun katta marralarni belgilab olganimizdan xabaringiz bor. Xususan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan edik.

Ochiq aytish kerak, dastlab bunga ayrim kishilar shubha yoki ikkilanish bilan qaragani ham bor gap. Lekin o‘z vaqtida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirganimiz, barcha imkoniyatlarni ishga solganimiz tufayli bu yilning o‘zida yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Yangi Hukumat, barcha rahbarlar birgalikda qattiq ishlab, islohotlarimiz shiddatini pasaytirmasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotimizdagi o‘zgarishlarni jadal davom ettirsak, 2030-yilga borib iqtisodiyotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkaza olishimizga men albatta ishonaman.

To‘g‘ri, bu kichkina raqam emas. Lekin erishsa bo‘ladigan marra. Bu natijani ta’minlash orqali aholining turmush darajasi va sifatini keskin yaxshilashga erishamiz. Xususan, aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming dollardan oshirish, kambag‘allik darajasini 5 foizga tushirib, ehtiyojmand aholi uchun mustahkam ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish, tibbiyotga ajratilayotgan mablag‘larni 2 barobar ko‘paytirib, tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish va kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrovni ta’minlash, yiliga 150 ming kvartirali yangi zamonaviy uy-joylarni barpo etish imkoniyati yaratiladi.

Yana bir bor aytaman, bunday natijalarga erishish uchun kuch va imkoniyatimiz ham, salohiyatimiz ham yetadi.

Bu borada eng muhim yo‘nalishlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, makroiqtisodiy muvozanatni saqlab, kelgusi besh yilda iqtisodiy o‘sish sur’atini 6-7 foiz atrofida ta’minlashimiz zarur.

Bunda inflyatsiya darajasi 5-6 foiz, byudjet taqchilligi 3 foiz doirasida bo‘lishiga erishish, yillik kreditlash hajmini 30 milliard dollarga olib chiqish asosiy vazifa bo‘ladi.

Ushbu davrda Hukumat kamida 100 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishga hamda yillik eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard dollarga olib chiqish, unda tayyor mahsulotlar ulushini 50 foizga yetkazishga erishishi lozim.

Xorijiy turistlar oqimini 5 yilda 15 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga olib chiqish uchun barcha imkoniyatlar borligini ta’kidlash zarur.

Shu bilan birga, norasmiy iqtisodiyotni “soyadan chiqarish”da raqamli texnologiyalarni tayanch vositaga aylantirish lozim. Xususan, kelgusi yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni yanada rag‘batlantirib, onlayn to‘lovlar ulushini 60 foizga yetkazish Hukumat va Markaziy bankning muhim vazifasi bo‘ladi.

Biz Jahon savdo tashkiloti bilan hamkorlik doirasida asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirdik va yaqin yillarda ushbu tashkilotga albatta a’zo bo‘lib kirishimiz kerak.

Ikkinchidan, joriy yilda Sayxunobod, Uychi, Zarbdor, G‘ijduvon tumanlarida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijalari asosida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” kompleks dasturini qabul qildik.

Endi ko‘p qirrali yondashuvlar asosida kambag‘al oilalarning a’zolariga sifatli ta’lim berish, ularni kasbga o‘qitish, ish bilan ta’minlash, sog‘ligini yaxshilash, psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha ko‘mak berish paketlari individual bo‘ladi.

Ishni mahallabay tashkil qilib, 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilanadi.

Shu maqsadda kambag‘al oilalarga mansub bolalar maktablarda chet til, kasb-hunar va IT bo‘yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so‘m ajratiladi. Ijtimoiy ahvoli og‘ir mingta mahallada infratuzilmani yaxshilash dasturi amalga oshiriladi. Bunga 2 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga jami 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanadi.

Hukumat 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e’tirof etilgan daraja — 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalarni ham samarali hal etishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiyot va aholi daromadlarini o‘stirishda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlariga alohida ahamiyat qaratish kerak.

Vazirlar Mahkamasining investitsiya kompleksi kelgusi yilda iqtisodiyotimiz uchun muhim bo‘lgan 300 dan ziyod yirik loyihani ishga tushirishi va to‘liq quvvatlar bilan ishlashini ta’minlashi zarur. Jumladan, “Yoshlik I” konida birinchi bosqichga, “Muruntov” konida esa keyingi bosqichlarga start beriladi. Shuningdek, Samarqand viloyatida yiliga 910 ming tonna mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaradigan kompleks, 600 ming tonna mahsulot beradigan metallurgiya korxonasi, Zarafshonda kaustik soda zavodi, Nukusda isitish tizimlari ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshiriladi.

Yurtimizda sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish imkoniyatlarini to‘liq ishga solish uchun barcha sharoitlar mavjud. Navoiyda mikro GESlarni barpo etish bo‘yicha barcha bosqichlar o‘z resurslarimiz asosida tashkil qilingani bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Shuning uchun sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish bo‘yicha katta dastur qabul qilamiz. Yangi tarkibdagi Hukumat yaqin besh yilda chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlari ulushini 32 foizga yetkazishni asosiy vazifa sifatida belgilab olishi zarur.

Yana bir muhim masala — iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ishonchli ta’minlash va energiya samaradorligini 2 karra oshirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Kelgusi yili mamlakatimizda 90 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, aholi va iqtisodiyot talablarini to‘liq ta’minlash lozim. Bunda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 25 gigavattga, ularning jami iste’moldagi ulushi 40 foizga yetkaziladi.

To‘rtinchidan, kelgusi besh yilda iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini 85 foizga yetkazish ham asosiy vazifalardan biridir.

Bu borada 2 mingta korxonada davlat ulushini, 5 mingdan ziyod ko‘chmas mulk obyektini sotish, 16 ta yirik majmua aksiyalarini IPO ga chiqarish talab etiladi. Hukumat 30 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni ta’minlashi kerak.

Vazirlar Mahkamasi 2025-yilda “tejamkorlik va barqarorlik” tamoyili asosida davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni tezlashtirib, ularning xarajatlarini 15-20 foizga qisqartirishi zarur. Bu borada 1 milliard dollarlik 18 ta davlat kompaniyasining ulushi berilgan Milliy investitsiya jamg‘armasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish lozim.

Beshinchidan, aholimiz soni ko‘payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Bu borada qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, avvalo, meva-sabzavotchilikni intensiv rivojlantirish, yangi urug‘ navlarini yaratib, importni 50 foizga qisqartirish bo‘yicha dasturlarimiz bor.

Hukumat bu dasturlar ijrosini ta’minlab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, sohada eksport hajmi 10 milliard dollardan iborat bo‘lishi, suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yer maydonlarini 2 karra oshirish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etishi zarur.

Yangi yilda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun 5 trillion so‘m, kanallarni betonlash uchun 800 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Sog‘liqni saqlash, ta’lim va sportni rivojlantirish bo‘yicha katta dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirish — hamisha Hukumatning kun tartibida turishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalardir.

Birinchidan, o‘rtacha umr ko‘rish darajasini 78 yoshga yetkazish uchun birlamchi tibbiy xizmatlarning aholi uchun qulayligi va sifatini oshirish zarur. Xususan, 2025-yilda birlamchi bo‘g‘inda 3 million 700 ming nafar ayolni skrining tekshiruvidan o‘tkazish, bu jarayonni raqamlashtirish orqali saraton kasalligini erta aniqlash ko‘rsatkichini hozirgi 60 foizdan 85 foizga yetkazish mumkin.

Hukumat mahallalardagi 18 mingta tibbiyot brigadalarini o‘qitish, 884 ming nafar bemorni uy sharoitida reabilitatsiya bilan qamrab olish bo‘yicha yangi tizimni joriy etadi. Shu bilan birga, tug‘uruqxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga 100 million dollar yo‘naltiriladi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi va aholiga kafolatlangan paket asosida tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi kelgusi uch yilda barcha shahar, tuman va qishloqlarni qamrab olishi zarur. Shuningdek, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish kabi masalalar bo‘yicha Hukumat alohida dasturlar ishlab chiqishi lozim.

Ikkinchidan, ta’lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan siyosatimiz izchil davom ettiriladi.

Kelgusi yillarda bog‘chalarda qamrovni 80 foizga, oliygohlarda esa kamida 50 foizga yetkazish Hukumat uchun asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag‘lari hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog‘cha barpo etiladi. Shuningdek, 174 ta bog‘cha va 379 ta maktab ta’mirlanadi va yangitdan quriladi. Bu maqsadlar uchun byudjetdan 4 trillion so‘m ajratiladi.

Tadbirkorlarga maktab qurish uchun 20 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit beriladi. Bunda kredit stavkasining 13,5 foizdan oshgan qismi byudjetdan qoplab beriladi.

Muhtaram deputatlar!

Yuqorida aytilgan dolzarb vazifalarni bajarishda yangi Hukumatning Qonunchilik palatasi bilan yanada samarali hamkorlik olib borishi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, yangi tarkibdagi Vazirlar Mahkamasi oldida turgan ustuvor vazifalarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Avvalambor, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini odamlarga yanada yaqinlashtirish lozim.

Shu o‘rinda barcha rahbar kadrlar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lgan bosh talabni yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman. Ya’ni **xalq davlat idoralariga emas, aksincha, davlat tashkilotlari xalqqa, uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilishi zarur**.

Joriy yilda qonunlar ijrosini doimiy baholab borish bo‘yicha yangi tizimni yo‘lga qo‘yganimizdan ko‘zlangan maqsad ham shundan iborat. Qonun qabul qilindimi, u albatta ishlashi kerak va odamlar hayotida sezilarli o‘zgarish bo‘lishi lozim. Qonunlar ijrosi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo‘mitasi va mas’ul ijro etuvchi organ bilan birgalikda o‘rganib borilishi kerak.

Yana bir muhim masala. Ijro etuvchi hokimiyat organlari qarorlar qabul qilishda qonuniylikni, ularning asoslangan bo‘lishini ta’minlashi lozim.

Keyingi vaqtda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik bilan maslahat qilishda qonunlarimizda belgilangan talablarga hamisha ham rioya etilmayapti. Adliya vazirligi bir oy muddatda bu masala bo‘yicha takliflarni Qonunchilik palatasining tegishli qo‘mitasi bilan birga muhokama qiladi va Hukumatga kiritadi.

Hukumatning qonunchilik tashabbusi bilan Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalari sifatini oshirish ham dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Davrning o‘tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlarni qabul qilish Oliy Majlisning eng muhim vazifasi, kerak bo‘lsa, uning obro‘sidir. Bu borada taniqli xitoy faylasufi Shan Yanning **“Yaxshi qonun — xalqqa hurmat ifodasidir”**, degan so‘zlarini eslash o‘rinli deb o‘ylayman.

E’tiboringizni **yana bir masalaga** qaratmoqchiman. Hukumat, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari deputatlar tomonidan joylarda aniqlangan muammolarni hal etishda quyi palata qo‘mitalari bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari lozim. Lekin hozirgi vaqtda turli sohalarda nazoratni ta’minlovchi davlat inspeksiyalarining Qonunchilik palatasi qo‘mitalari bilan hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilmagan.

Shu bois ularning hisobotlarini qo‘mitalarda muhokama qilib borish bo‘yicha yangi, ta’sirchan tizimni joriy etsak, o‘ylaymanki, parlament nazorati samaradorligi yanada oshadi.

Qolaversa, bu ish samarali bo‘lishi uchun vazirlik va idoralarda rahbar o‘rinbosarlarini quyi palata qo‘mitalari bilan doimiy hamkorlik uchun mas’ul etib biriktirsak, nima deysizlar?

Albatta, bu birinchi rahbarlar zimmasidan mas’uliyatni soqit qilmaydi, palatalar bilan hamkorlik uchun so‘rov, avvalambor, ulardan bo‘ladi.

Umuman olganda, parlament va Hukumat o‘rtasidagi munosabat qarama-qarshilikka emas, konstruktiv muloqotga asoslanishi zarurligini yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman.

Shu bilan birga, **parlament nazorati — bu, avvalo, “xalq nazorati, xalq so‘rovi”** ekanini unutmaslik lozim. Afsuski, parlament so‘rovi, deputat so‘roviga yuzaki yondashib, unga yengil-yelpi munosabatda bo‘lish holatlari ham uchrab turibdi.

Bu borada barcha rahbarlar mas’uliyat va javobgarlikni to‘liq his etishi lozim. Ushbu masalaga bepisand qarashga hech kimning haqqi yo‘q. Parlament va deputat so‘rovlariga javob aniq va mazmunli bo‘lishi, so‘rov kimga yo‘llangan bo‘lsa, shaxsan shu rahbar tomonidan javob berilishi shart. So‘rovlarni yuborish va qabul qilish onlayn tizimga o‘tayotgani bu boradagi muammolarga yechim bo‘lishiga ishonaman.

Qadrli do‘stlar!

Mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish uchun **samarali tashqi siyosat olib borish, do‘st va hamkorlarimiz doirasini kengaytirish, yaqin qo‘shnilarimiz bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish** o‘ta muhim vazifadir.

Shu maqsadda, avvalo, Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilish zarur, deb hisoblayman. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash tashqi siyosatimizda ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Kelgusi yili yurtimizda bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo beshligi” uchrashuvi, hech shubhasiz, shu yo‘ldagi yana bir ulkan amaliy qadam bo‘ladi. Ushbu anjumanda erkin savdo zonasini, biznes va investitsiyaviy faollik, ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi markazini yaratish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilishi ham shunday deb aytishga asos beradi.

Hozirgi vaqtda fuqarolarimiz Qirg‘izistonga ID karta bilan bemalol borib-kelmoqdalar. Endi shunday tartibni Qozog‘iston va Tojikiston bilan ham joriy etamiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda boshqa yetakchi hamkor davlatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, moliya institutlari bilan samarali va tizimli aloqalarni yanada rivojlantirish doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib, bugungi yig‘ilishda ishtirok etayotgan diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillarini samimiy qutlaymiz.

Islohotlarimizni chin dildan qo‘llab-quvvatlab kelayotganingiz, hududlarimizga chiqib, yangilanish va o‘zgarishlar bilan yaqindan tanishib, o‘z davlatlaringizdagi tajribalarni biz bilan o‘rtoqlashayotganingiz uchun sizlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun butun dunyo nihoyatda notinch va tahlikali vaziyatda yashayotganini barchamiz ko‘rib, his qilib turibmiz. Mana shunday murakkab davrda **davlatimizning mustaqilligi va suverenitetini, xalqimizning tinch va erkin hayotini eng bebaho boylik sifatida asrash va himoya qilish** eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi.

Hech qachon unutmasligimiz zarur: mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimiz mudofaasi nafaqat Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish idoralari, balki O‘zbekistonni o‘zi uchun ona Vatan deb biladigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha insonlarning muqaddas burchidir. Buning uchun yagona Vatan, ko‘p millatli yagona ahil oila tuyg‘usi har birimizning qalbimiz, yuragimizdan chuqur joy olishi lozim.

Dunyoda turli xatar va tahdidlar avj olib borayotgan hozirgi sharoitda Qurolli Kuchlarimizning jangovar va ma’naviy salohiyatini oshirishga e’tiborni yanada kuchaytiramiz.

O‘shlarimiz ong-u tafakkurida milliy g‘urur bilan birga umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarur. Farzandlarimizni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ularni ilm-fan, IT texnologiyalar, ma’naviyat, san’at va adabiyot, sport bilan oshno etish uchun hech narsani ayamasdan, bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Bugun faqat mana shunday ilg‘or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo‘lida birlashgan xalqqa ega bo‘lgan davlatgina o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashga erisha oladi.

Shu munosabat bilan yaqinda Navoiy viloyatida aytgan fikrimni takrorlashni zarur deb bilaman.

Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi.

Ayni vaqtda biz jamiyatimizdagi ochiqlik va erkinlik muhitini, millatlar va dinlar o‘rtasidagi ahillik va hamjihatlikni mustahkamlash, so‘z va matbuot erkinligi, vijdon erkinligini ta’minlash bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettiramiz.

Hurmatli deputat va senatorlar, yangi Hukumat, hokim va vazirlarimiz mana shu vazifalarning mohiyatini to‘g‘ri anglab, muhtaram faxriylarimiz, mahalla, xotin-qizlar, yoshlar va kasaba uyushmalari tashkilotlari, ilmiy va ijodiy ziyolilarimiz bilan bir yoqadan bosh chiqarib faol ish olib boradilar, deb ishonaman.

Aziz yurtdoshlar!

Ko‘rib turganingizdek, oldimizda g‘oyat ulkan marralar turibdi. Yangi O‘zbekistonimiz yangi parlamenti bilan birga o‘z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo‘ymoqda.

Albatta, bu yangi davrda endi eskicha ishlab bo‘lmaydi. Shu bois Hukumat o‘z faoliyatini mutlaqo yangicha asosda tashkil etishi kerak. Buning uchun unga kuchli rahbar, ya’ni Bosh vazir zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Men bu masala haqida atroflicha o‘ylab, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga Abdulla Nigmatovich Aripov nomzodini ko‘rsatishga qaror qildim.

Bu rahbarni barchangiz yaxshi taniysiz. Abdulla Aripov katta tashkilotchilik salohiyatiga ega bo‘lgan, ijro hokimiyati tizimida boy bilim va tajriba orttirgan, mas’uliyatni doimo chuqur his etadigan rahbardir. U Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur tushunadi, balki ularni amalga oshirishda chinakam jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan rahbarlarimizdan biri, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

U kishi bilan ancha yillar davomida birga ishlab, shunga amin bo‘ldimki, davlat miqyosidagi yirik dastur va loyihalarni amalga oshirishda doimo talabchanlik va jonkuyarlik bilan yondashadi. Abdulla Aripov mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan cho‘chimasligi, aholi bilan muloqot uchun har doim ochiqligi, mehnatkashligi va kamtarinligi bilan xalqimiz o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan.

Ushbu nomzod bugun Hukumat oldiga qo‘yilgan, ko‘lami va miqyosi benihoya katta bo‘lgan muhim vazifalarni hal etishda Vazirlar Mahkamasi faoliyatini samarali tashkil qiladi, Hukumat a’zolari, vazirlik va idoralar rahbarlarini birlashtirib, yagona maqsad sari safarbar eta oladi, deb ishonaman.

Hozirgi murakkab davrda bu juda muhim. Shu bois bugun ana shu nomzodni sizlarning muhokamangizga taqdim etmoqdaman.

Siz, hurmatli deputatlar va fraksiyalar rahbarlaridan ushbu nomzod hamda bo‘lg‘usi Hukumatning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ko‘rib chiqib, qo‘llab-quvvatlashingizni so‘rayman.

* * *

Muhtaram vatandoshlar!

Endi an’anamizga muvofiq, kelgusi yilda e’tiborimiz markazida bo‘ladigan eng ustuvor yo‘nalish bo‘yicha maslahatlashib olsak.

Bugun nafaqat biz, balki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog‘ligiga zarar yetkazmoqda.

Biz bu masalaning oqibatlarini oldindan ko‘rib mazkur yo‘nalishda katta ishlarni olib boryapmiz. Bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi hozirgi kunga kelib chinakam xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur qator hududlarda, jumladan, Orolbo‘yidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishdik. Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti tashkil etildi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo‘ldik. Ayni vaqtda “yashil” energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Biz yangi yilga nom berish masalasida el-yurtimizning fikr-mulohazalari, xohish-istaklarini atroflicha o‘rgandik. Bildirilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda boshlagan ishlarimizni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida men 2025-yilni yurtimizda **“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”**, deb e’lon qilishni taklif etaman.

Biz tabiat haqida so‘z yuritganda, ko‘pincha “ona tabiat” degan iborani ishlatamiz. O‘ylaymanki, bu shunchaki chiroyli, shoirona so‘z emas, balki uning zamirida chuqur hayotiy haqiqat bor.

Biz mo‘tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehtirom qilsak, o‘zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo‘lishimiz zarur.

Zero, **tabiatni asrash — insonni asrash demakdir**.

Albatta, yangi saylangan Bosh vazirimiz rahbarligidagi hukumat yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqadi. Ushbu dasturda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Bugun siz, azizlar bilan, xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz.

Hech shubhasiz, bu davrning qanday bo‘lishi birgalikda o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirishimizga bog‘liq.

Ishonchim komil, bu — **Yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr** bo‘ladi.

Bu davr parlament va Hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha ibratli an’analar shakllanadigan va tarixga muhrlanadigan davr bo‘ladi.

Kelajak avlodlar albatta faxr bilan tilga oladigan ana shunday buyuk tarix va kelajakni yaratish bizning o‘z qo‘limizda.

Keyingi uch kun mobaynida siz, azizlar bilan, keng jamoatchiligimiz bilan mamlakatimizning bugungi va ertangi taraqqiyoti haqida atroflicha fikr almashdik. 2024-yilda — “O‘shlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da bajargan ishlarimizga yakun yasadik.

Parlamentimizda — “Xalq uyi”da deputatlar bilan muhokama qilingan barcha tashabbus va rejalarni, ularda ilgari surilgan g‘oya, maqsad va vazifalarni, mohiyat e’tiboriga ko‘ra **Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnoma**, desam, o‘ylaymanki sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Siz, hurmatli deputatlar va Hukumatimiz a’zolari, kattayu kichik barcha rahbarlar mana shu Murojaatnomada belgilab berilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda fidoyilik va namuna ko‘rsatib mehnat qilasizlar, deb ishonaman.

Mana shunday sharafli maqsad yo‘lida barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, ulkan yutuq va omadlar tilayman.

YANGI O‘ZBEKISTONIMIZ YANGI PARLAMENTI BILAN BIRGA O‘Z TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI BOSQICHIGA QADAM QO‘YMOQDA

1 Davlatimiz rahbari ma’ruzasi avvalida mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik va joriy vazifalarni amalga oshirishda barcha bo‘g‘indagi ijro organlari, avvalo, Hukumat va uning rahbari zimmasidagi mas’uliyat hozirgi murakkab zamonda har qachongidan ham ortib borayotganini ta’kidladi.

Bugun mutlaqo yangi vakolat va vazifalarga ega bo‘lgan Hukumat shakllanayotgani qayd etildi. O‘tgan besh yilda har tomonlama puxta o‘ylab qabul qilingan dasturlar ijrosi qanday ta’minlangani haqida atroflicha to‘xtalib o‘tildi.

Shuningdek, Hukumat faoliyatining eng muhim yo‘nalishlari belgilab berildi. Dolzarb vazifalarni bajarishda yangi Hukumatning Qonunchilik palatasi bilan yanada samarali hamkorlik olib borishi muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi.

Majlisda deputatlar Prezident taqdimiga ko‘ra Bosh vazir lavozimiga ko‘rsatilgan Abdulla Aripov nomzodini ko‘rib chiqdi.

A. Aripov Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan Harakat dasturini taqdim etdi.

Siyosiy partiyalarning quyi palatadagi fraksiyalari rahbarlari hamda deputatlar so‘zga chiqib mazkur nomzod va dastur yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdi.

Nomzod va Hukumatning dasturi ko‘rib chiqilgach Bosh vazir lavozimiga nomzodni ma’qullash masalasi ovoz berishga qo‘yildi.

Yashirin ovoz berish yo‘li bilan deputatlar Abdulla Aripovni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga ma’qulladi. Bu bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qarori qabul qilindi.

Majlisda Prezidentimiz bugun nafaqat O‘zbekiston, balki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilayotganini qayd etdi.

Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelayotgani, atrof-muhit va aholi sog‘ligiga zarar yetkazayotgani ta’kidlandi. Bunga javoban mamlakatimizda uch yil avval “Yashil makon” umummilliy loyihasi boshlangani, qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishilgani aytib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”, deb e’lon qilishni taklif etdi.

YiQilganlar ushbu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatladi.

Hukumat yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqishi belgilandi.

Ushbu dasturda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi ta’kidlandi.

Shu bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisi o‘z ishini yakunladi.

“Xalq so‘zi”.

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN LOYIHALAR TAQDIMOTI

1 Xususan, kelgusi yilda Samarqand viloyatida hududiy dasturlar doirasida kamida 1 milliard 850 million dollar investitsiyalarni o‘zlashtirish, 20 ming ish o‘rni yaratish va qo‘shimcha 1,2 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish hisob-kitob qilingan.

Masalan, Pastdarg‘om tumani “Chimboyobod” hududida hokimlik zaxirasida turgan 234 gektar yerda maxsus sanoat zonasini tashkil qilish mumkin. Tadbirkorlar u yerga 500 million dollar investitsiya kiritib, farmatsevtika, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari va oziq-ovqat loyihalarini boshlashga tayyorligini bildirgan.

Yoki Zarafshon daryosi atrofidagi 25 gektar toshloq yer “Urgut” erkin iqtisodiy zonasiga qo‘shilsa, 30 million dollarlik loyihalarga joy bo‘ladi. Darg‘om kanali bo‘yida 35 kilometrli turistik yo‘lak, Narpay kanalida gastronomik ko‘prik tashkil etish orqali birinchi bosqichda 500 milliard so‘mlik loyihalar amalga oshiriladi.

Viloyatdagi yaylov va lalmi yerlarni iqtisodiy aktivga aylantirish kerak. Masalan, Samarqand tumanida 350 gektar lalmi yerda turistik-rekreatsion hudud tashkil qilib, mingta tadbirkorni joylashtirish va 3,5 mingta ish o‘rni yaratish mumkin.

Bulung‘urning tuprog‘i, iqlimi meva-sabzavotchilikka qulay. Tumandagi 6 ming gektar samarasi kam g‘alla maydonlari meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirilsa, gektaridan daromad 10 ming dollardan oshadi, 45 ming odam ishli bo‘ladi. Mahsulotlarning yarmi eksportga chiqarilib, qo‘shimcha 52 million dollar eksport tushumi ta’minlanadi.

Ishtixon, Urgut, Payariq va Qo‘shrabotdagi odamlar 35 ming gektarda uzum yetishtiradi. Lekin serdaromad navlarni ekish, kasallikka qarshi kurashish, yangicha agrotexnik tadbirlarga ko‘nikma yetishmagani uchun hosildorlik past. Shu bois Ishtixonda Akademik M. Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tajriba stansiyasini tashkil qilish taklifi bildirilgan. Unda “in-vitro” usulida ko‘chatchilik yo‘lga qo‘yilib, uzumning “Gigant”, “Sirliboy”, “Avatar” kabi bozorbop navlari ekiladi. Natijada hosildorlik qo‘shimcha 25 — 30 sentnerga, eksport 20 million dollarga oshadi.

Shuningdek, Qo‘shrabot, Ishtixon, Nurobod, Pastdarg‘om, Paxtachi va Urgutdagi konlar negizida foydali qazilmalarni qayta ishlash korxonalarini ochish mumkin.

Yig‘ilishda Samarqand viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha chora-tadbirlarni taqdimot qildi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha qaror kiritish vazifasini qo‘ydi. Loyihalarni master-reja asosida joylashtirish, ko‘proq ish o‘rinlari va zamonaviy uy-joylar tashkil etib, aholi farovonligini oshirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

O‘zA.

SAMARALI ISHLAYDIGAN QONUNLAR QABUL QILISH OLIY MAJLISNING ENG MUHIM VAZIFASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqida parlament oldida ulkan vazifalar turganini ta’kidlab, bir qator muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Parlament va Hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Deputat va senatorlar bu bo‘yicha o‘z fikr-munosabatlarini bildirdi.

Aks sado

Shavkat AYUPOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:



— Prezidentimiz tomonidan ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar mamlakatimiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Gap shundaki, ta’lim sifatini yanada oshirish va yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash bugun har qachongidan dolzarb.

Shu bois bugun bog‘cha va maktablar qamrovini kengaytirish masalasiga katta e’tibor berilmoqda. Mamlakat yetakchisi ta’kidlaganidek, bog‘chalarda bolalar qamrovini 80 foizga va oliy ta’lim qamrovini 50 foizga yetkazish hukumat oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu esa yoshlarimizning ta’lim-tarbiya olish imkoniyatini kengaytirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash uchun katta qadam hisoblanadi.

Xalqaro moliya institutlarining moliyaviy ko‘magida 2025-yilda 252 ta yangi bog‘cha qurilishi, mavjud bog‘cha va maktablarni ta’mirlash ham ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu maqsadlar uchun 4 trln. so‘m byudjet mablag‘lari yo‘naltiriladi. Shu raqamlarning o‘ziyoq ta’lim-tarbiyaga qaratilgan e’tibor nechog‘li zalvarli ekanidan yaqqol dalolat berib turibdi.

Bizni quvontirgan yana bir masala — tadbirkorlar uchun maktab qurishda yaratilayotgan imtiyozlar. Endilikda maktab qurish uchun tadbirkorlarga imtiyozli kredit berish tizimi joriy etiladi. Kredit stavkasining yuqori qismi davlat tomonidan qoplanadi. Bu tashabbus xususiy sektorni ta’lim sohasiga keng jalb qilish hamda yangi maktablar qurishni jadallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Buning barchasi faqatgina ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish emas, balki yoshlarimizning sifatli ta’lim olishi, ularning intellektual salohiyatini oshirish va kelajakda kadrlarimizning raqobatdoshligi uchun poydevor yaratishga qaratilgan. Har bir bog‘cha va maktab bu nafaqat ta’lim maskani, balki yoshlarning shaxsiy kamoloti va kelajagi uchun mustahkam poydevordir.

Shaxsan men bu vazifalarning ijrosini ta’minlash yo‘lida bor kuchim bilan ishlashga tayyorman. Zero, ta’limga qaratilgan e’tibor kelajakka uchun tikilgan eng muhim investitsiyadir.

O‘ktamjon OXUNOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:



— Nutqda Markaziy Osiyodagi davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalasiga katta e’tibor qaratildi. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar nafaqat mintaqaviy barqarorlik, balki iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratishga zamin hozirlamoqda.

Yurtboshimiz qayd etganidek, kelgusi yili yurtimizda “Markaziy Osiyo beshligi” uchrashuvi o‘tkaziladi. Bunday tashabbuslar orqali mintaqadagi davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar ham yangi bosqichga ko‘tariladi.

Shularga mos ravishda bir qator qo‘shni davlatlar bilan bordi-keldi munosabatlarida qo‘shimcha qulayliklar yaratish tashabbusi ilgari surildi. Bu nafaqat harakat erkinligini oshiradi, balki madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni yanada kuchaytiradi. Bunday chora-tadbirlar Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ishonch hamda hamkorlik muhitini mustahkamlashda ayni muddaodir.

Afg‘oniston bilan aloqalarimiz ham izchil davom ettiriladi. Bundan ko‘zlangan bosh maqsad bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘mak berish va mintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shishdir. Biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining afg‘on hukumati bilan muloqot boshlash bo‘yicha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaymiz. Afg‘onistonni yakkalash emas, balki uning xalqi va hukumatiga dolzarb muammolarni hal etishda yordam qilish kutilgan natijalarni beradi.

Senat a’zosi sifatida bu tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman. Zero, Markaziy Osiyodagi barqarorlik va hamkorlik mintaqamizning barcha davlatlari uchun birdek manfaatlidir.

Firdavs QURBONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Prezidentimizning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” kompleks dasturining ahamiyati va uning ijobiy natijalari haqida bildirgan fikrlari barchamiz uchun dasturilamaldir. Bu yil Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G‘ijduvon tumanlarida olib borilgan ishlarning samarasi mazkur dasturni butun respublika bo‘ylab tatbiq etish uchun mustahkam asos yaratib berdi. Deputat sifatida bu dastur muhimligini yana bir bor ta’kidlashni xohlardim.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, kambag‘allikdan chiqishning asosiy yo‘li faqat moddiy yordamdangina emas, balki ko‘p qirrali yondashuv orqali aholining ta’lim olishi, kasbga o‘qishi, ish bilan ta’minlanishi va turmush darajasini oshirishga yordam berishdan iboratdir. Endi kambag‘al oilalar a’zolariga ko‘rsatiladigan ko‘mak individual yondashuv asosida tashkil etiladi. Bu maktablarda bolalarga chet tili, kasb-hunar va IT bo‘yicha bepul bilim berish, infratuzilmani yaxshilash va psixologik yordam ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Maxsus dastur uchun ajratiladigan 500 mlrd. so‘m va infratuzilmani yaxshilash uchun ajratilgan 2 trln. so‘m sohadagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, Hukumat 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish va 2030-yilga borib ishsizlik darajasini 5-6 foizdan oshirmaslik kabi vazifalarni samarali hal etishi lozimligi ta’kidlandi. Bunday sa’y-harakatlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki xalqimizning ertangi kunga ishonchini mustahkamlaydi.



Xalq vakili sifatida o‘z saylov okrugimda bu ishlarni amalga oshirishga bor kuchimni safarbar qilaman. Sa’y-harakatlarimiz orqali nafaqat yurtdoshlarimiz turmush darajasini yaxshilaymiz, balki yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida muhim qadamlar tashlaymiz.

Xushvaqt HAYITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



— Majlisda qonunlarning hayotga tatbiq etilishidagi sifati va ahamiyatiga alohida urg‘u berildi. Ta’kidlanganidek, hayotning o‘tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlarni qabul qilish Oliy Majlisning eng muhim vazifasi, kerak bo‘lsa, uning obro‘sidir. Bu fikr har birimiz uchun ulkan mas’uliyatni anglatadi.

Davlatimiz rahbari qonunchilikning sifatini ta’riflashda xitoy faylasufi Shan Yanning mashhur so‘zlariga murojaat qildi: “Yaxshi qonun — xalqqa hurmat ifodasi”. Bu so‘zlar chuqur ma’noga ega bo‘lib, davlat boshqaruvidagi adolat va xalqqa xizmat qilishning asosiy prinsiplarini aks ettiradi. Aynan shu fikr qonunchilik jarayoni uchun yo‘l-yo‘riq sifatida keltirildi va bu biz uchun katta ibratdir.

Deputat sifatida bu fikrning mohiyatini teran his etaman. Har bir qonun xalq manfaatiga xizmat qilishi, uning ishonchini qozonishi shart. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, agar qonunlar sifatli va amaliyotda samarali bo‘lsa, ular nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shadi, balki xalqimizning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Shuning uchun qonunlarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini tinglash, mutaxassislar xulosalarini hisobga olish va har bir hujjatning amaliy natijasini oldindan aniqlash muhim. Bunday yondashuv qonunlar hayotga tatbiq etilishidagi samaradorlikni kafolatlaydi.

Qonunchilikning xalqqa yaqin bo‘lishi va uning manfaati uchun ishlashiga bejiz e’tibor qaratilmadi. Bu biz, deputatlar uchun, asosiy maqsadga aylanishi kerak. Qabul qilinayotgan har bir qonun xalqning hayotini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi shart.

Madina BARATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



— Parlament nazoratining yakuni bo‘yicha chiqariladigan har bir qaror xalq va saylovchilarni qiynayotgan dolzarb muammolarga yechim bo‘lishi shart. Prezidentimizning ushbu fikrlaridagi asosiy urg‘u shundaki, parlament nazorati jarayoni faqat tekshirish yoki tanqid bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular aniq yechimlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu esa nafaqat muammolarni hal etish, balki saylovchilar ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi. Parlament nazorati natijasida qabul qilinadigan har bir qaror ortida aniq va amaliy takliflar, hukumat yoki mutasaddi vazirliklar uchun bajarilishi shart bo‘lgan vazifalar turishi zarur.

Parlament faqat qonun chiqarish organi emas, balki davlat boshqaruvining har bir darajasida samaradorlikni ta’minlovchi muhim tuzilma bo‘lishi kerak. Buning uchun biz, deputatlar parlament nazorati jarayonida hal qilinmagan muammolarga e’tibor qaratishimiz, ular bo‘yicha aniq takliflar tayyorlashimiz va amaliy natijalarga erishish uchun Hukumat bilan yaqin hamkorlikda ishlashimiz lozim.

Parlament nazorati orqali aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan aniq mexanizmlar yaratilishi muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuv dolzarb muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Ishonamizki, yangi tizim va aniq vazifalar ijrosi orqali parlament nazoratining samaradorligi yanada yuqori bosqichga ko‘tariladi.

“Xalq so‘zi”.

PIROVARD MAQSAD – O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi — tarixiy majlisida davlatimiz rahbari “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining ta’lim tizimi rivoji bilan bog‘liq tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab, barcha islohotlar, taqdirimiz va istiqbolimiz, eng avvalo, maktabga va muallimlarga, umuman, ushbu soha rivojiga chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidladi.

Munosabat

Shuningdek, millat yetakchisi tomonidan yosh avlodni qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularga ona tili va chet tillarni o‘rgatish uchun keng imkoniyat va qulay sharoitlar yaratishga oid takliflarimiz ham muhim ekani, aynan shu yo‘l bilangina farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratilishiga e’tibor qaratildi.



Zero, bugungi globallashayotgan dunyoda hayot-mamot masalasiga aylangan ta’limsiz taraqqiyot, ilm-fansiz esa yuksalish bo‘lmaydi. Yangi O‘zbekiston islohotlarning zamiriga ham aynan ta’lim tizimi asos qilib olingani bejiz emas.

Yangi O‘zbekiston islohotlarining yangi davri, yangicha yondashuvlar va yangi huquqiy makon haqida gap ketganida, davlatimiz rahbari o‘tgan besh yil davomida quyi palataning samarali faoliyati bilan birga, dolzarb masalalar e’tibordan chetda qolayotganini ham qayd etdi.

Albatta, ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklar, jumladan, qonunlar sifati, parlament nazorati masalasi, deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati asosan uchrashuvlar, shikoyat va savollarga javob berish bo‘lib qolayotgani haqidagi mulohazalardan deputatlar bilan bir qatorda, biz — siyosiy partiyalar ham tegishli xulosalar chiqarishimiz kerak.

Majlisda yangi saylangan deputatlar oldida turgan ustuvor vazifalar ham tilga olinib, yangi davrda parlament chinakam xalq uyiga, uning quyi palatasi esa Qoyalar generatoriga, sog‘lom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanishi kerakligi, shuningdek, parlamentda muxolifatni jonlantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Biz muxoliflik deganda parlamentda partiya fraksiyalarini qonunlar yoki Hukumat qarorlarini muhokama qilishdagi tortishuvini tushunamiz. Bunday tortishuvlar millat va mamlakat manfaati yo‘lida konstruktiv tarzda kechadi, pirovard maqsadimiz esa O‘zbekistonni rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratiladi, albatta.

Biz partiyalararo yoki Qoyalar masalasida konstruktiv qutblashishga qarshi emasmiz, lekin milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi maqsadlarimiz yagona va bahs-munozaralarsiz kechishi kerak!

Ma’lumki, endi yangi parlament quyi palatasida 12 ta emas, 10 ta yangilangan qo‘mita faoliyat yuritadi. Ko‘pchilik hamkasblarimiz ta’kidlaganidek, bu nihoyatda to‘g‘ri qaror bo‘ldi. Har bir qo‘mita qoshida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilishi ham yaxshi samara beradi, degan umiddamiz.

Shu o‘rinda yana bir masalaga alohida e’tibor qaratmoqchiman: bundan buyon davlat rahbarining partiya raislari bilan ular istagan vaqtda muloqot qilish uchun tayyorligi hamda mahalliy byudjetlarga daromad solig‘ining 50 foizini qoldirish haqidagi takliflarini partiyalar uchun katta yutuq sifatida olqishlash kerak.

Yana bir muhim o‘zgarish: endi fraksiya rahbarlari qonunga muvofiq Spikerga o‘rinbosarlik qilmaydi. Bu esa shubhasiz, fraksiya faoliyatini yanada erkinlashtirish va asosiy e’tiborni saylovchi — elektorat manfaatiga qaratishga imkon beradi.

Alisher QODIROV,
O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi rahbari.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 21-noyabr

Jahon savdo tashkiloti:

ISHBILARMONLAR UCHUN BEQIYOS IMKONIYAT

Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida o‘tgan iqlim bo‘yicha (SOR29) konferensiya doirasida Mamlakatimizning Milliy pavilyonida Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon savdo tashkiloti (JST) bosh direktori Ngozi Okonjo-Iveala bilan uchrashuv o‘tkazdi. O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi masalalarida amaliy hamkorlikni mustahkamlashning dolzarb jihatlari ko‘rib chiqildi. JST bosh direktori mamlakatimizning tashkilotga a’zo bo‘lishi borasida ko‘rilayotgan choralarni yuqori baholadi. O‘tgan yili Ngozi Okonjo-Iveala JST kotibiyati O‘zbekistonning sa’y-harakatlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlashini hamda mamlakat yaqin kelajakda tashkilotga qo‘shilishiga ishonch bildirgandi.

Nuqtai nazar

Islohotlarning ajralmas qismi



Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 2023-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan 78-sessiyasida JSTga muddatidan oldin a’zo bo‘lishni O‘zbekistonning ustuvor vazifasi deb atagan edi. Ushbu nufuzli tashkilotga a’zo bo‘lish mamlakatimizga qanday imtiyozlarni taqdim etadi? Salbiy tomoni yo‘qmi? Milliy qonunchilikni mazkur tashkilot me’yorlari va qoidalariga uyg‘unlashtirish, jumladan, eksport subsidiyalarini bekor qilish bo‘yicha ishlar faol olib borilayotgani, xalqaro savdoni tartibga solish masalalarida o‘zbekistonlik mutaxassislar malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani kelajakda o‘z samaralarini beradimi?

Ta’kidlash kerakki, ayni paytda O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish borasida ayrim davlatlar bilan muzokaralarni yakunlash va yaqin yillarda tashkilotga a’zo bo‘lish bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan fikrlar almashilyapti. Xususan, bir necha kun oldin O‘zbekiston AQSH bilan Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunladi. Hozirda tomonlar bozorga kirish to‘g‘risidagi bayonnomani imzolashga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Bu bilan AQSH O‘zbekiston bilan JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlagan yigirma birinchi davlat bo‘ldi.

Bundan oldin, aniqrog‘i, joriy yilning 26-oktyabr kuni Vashingtonda Jahon banki guruhining yillik yig‘ilishlari doirasida O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishiga bag‘ishlangan davra suhbati bo‘lib o‘tdi. A’zolikning mamlakat uchun foydasi tashqi savdoni rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, qo‘shimcha sarmoyalarni jalb qilish va iqtisodiy o‘sishni o‘z ichiga oladi. Ishtirokchilarning fikricha, “oldinda katta hajmdagi ishlar turganiga qaramay, O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish maqsadiga sodiqligi va keng xalqaro ko‘mak, jumladan, Jahon bankining texnik yordami bilan bu maqsadga erishish mumkin”.

Jahon banki ma’lumotiga ko‘ra O‘zbekistonning tashkilotga qo‘shilishi unga 5 — 7 yil ichida qo‘shimcha 17 foiz iqtisodiy o‘sishiga yordam beradi. Davlatimiz rahbari avgust oyida biznes vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda JSTga a’zo bo‘lishni “islohotlarning ajralmas qismi” deb atagani bejiz emas. Zero, biz bu muhim tashkilotga qo‘shilmas ekanmiz, ayrim davlatlarning O‘zbekistonga oid proteksionizm siyosati davom etaveradi, bu esa mamlakatning o‘sish imkoniyatlarini cheklaydi.

Integratsiyalashuv va kapital bozori

O‘zbekiston tashqi savdo hamkorlarining aksariyat qismi JSTga a’zo mamlakatlardir. Bu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda O‘zbekiston uchinchi davlat sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizdan eksport qilingan tovarlarga nisbatan yuqori boj stavkalari hamda notarif tartibga solish usullarining keng joriy etilishi mamlakat eksport salohiyatiga ta’sir etadi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etmasligi va shu sababli tashqi savdo munosabatlarida muntazam ravishda boshqa davlatlarning diskriminatsion siyosati qoidalariga duch kelishi ham salbiy holatlardan.

JSTga a’zolik eksport, xususan, tayyor mahsulotlar hajmini sezilarli darajada oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ham unutmaslik kerak. Shu maqsadda tegishli chora-tadbirlar ham ko‘rilyapti. Xususan, iyun oyidan boshlab Prezidentning JST masalalari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis etildi, shuningdek, 20 ta muassasada u bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha bo‘limlar ish boshlaydi. Shuningdek, tashkilot normalariga to‘g‘ri kelmaydigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish taqiqlandi.

Agar amaldagi iqtisodiy siyosat davom etsa, mamlakatimizning JSTga kirishi faqat vaqtga bog‘liq. Qo‘shilish jarayoni muzokaralar olib borish va milliy qonunchilikni JST qoidalariga muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina davlatlar allaqachon bu yo‘ldan muvaffaqiyatli o‘tgan. Odatda, JSTga a’zo bo‘lish jarayoni bir necha yildan o‘n yillargacha davom etishi mumkin. Masalan, Xitoy 15 yillik muzokaralardan so‘ng, Rossiya esa 18 yildan so‘ng a’zo bo‘ldi. Bu milliy qonunchilikni moslashtirish, savdo muzokaralarini olib borish va JST a’zolari o‘rtasida konsensusga erishish zarurati bilan bog‘liq. Mamlakatimiz 2026-yilda Kamerunda bo‘lib o‘tadigan 14-vazirlar yig‘ilishigacha JSTga a’zo bo‘lishni rejalashtirmoqda.

> *“Jahon banki ma’lumotiga ko`ra O`zbekistonning tashkilotga qo`shilishi unga 5 — 7 yil ichida qo`shimcha 17 foiz iqtisodiy o`sishiga yordam beradi. Davlatimiz rahbari avgust oyida biznes vakillari bilan bo`lib o`tgan ochiq muloqotda JSTga a’zo bo`lishni “islohotlarning ajralmas qismi” deb atagani bejiz emas.”*

Albatta, JSTga a’zo bo‘lishni xohlovchi davlat o‘zining savdo-iqtisodiy qonunchiligini tashkilotning xalqaro qoidalari, jumladan, tariflar, subsidiyalar, intellektual mulk va boshqa jihatlarga oid qoidalarga muvofiqlashtirishi kerak. Masalan, O‘zbekiston tarif to‘siqlarini kamaytirishi, savdo cheklovlarini bekor qilishi va intellektual mulk huquqlari himoyasini ta’minlashi zarur. Savdo siyosatida ham shaffoflikka ehtiyoj bor. To‘g‘ri, bu mamlakat iqtisodiyoti va uning investitsion jozibadorligiga darhol ta’sir qilmas, lekin bu jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va kapital bozorida ishtirok etishning muhim elementidir. Mamlakatda xomashyoni qayta ishlash va qo‘shilgan qiymatning oshishi tufayli tarmoqlar iqtisodiyotning yetakchilari qatoridan joy olishi mumkin. Shu paytgacha qishloq xo‘jaligi va sanoat qo‘shilgan qiymat zanjiriga yetarlicha jalb etilmagan, qayta ishlangan mahsulotlar va xalq iste’moli mollarini emas, balki xomashyo eksportini afzal ko‘rar edi. Masalan, to‘qimachilik sanoati boj to‘siqlarini kamaytirish, xomashyo va texnologiyadan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash hisobiga ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirishi mumkin.

Texnologiya va eksport bozorlariga kirish soddalashadi

Xo‘sh, JSTga a’zo bo‘lish oddiy odamlarga nima beradi? Bu mamlakatning oddiy rezidenti uchun o‘rta muddatli istiqbolda raqobatning kuchayishi va tovarlarning keng assortimentiga kirishi tufayli tovar va xizmatlar sifatining yaxshilanishini anglatadi. Yangi ish o‘rinlari ham paydo bo‘lishi mumkin, mehnat sharoitlari yaxshilanadi. Masalan, import qilinadigan tovarlarga tariflarni pasaytirish narxlarning arzonlashishiga va aholi uchun sifatli tovarlar mavjudligini oshirishga olib kelishi mumkin.

JSTga a’zo bo‘lgach logistika soddalashtiriladi. Xalqaro standartlar va tartiblarni joriy etish orqali logistikani soddalashtirish mumkin, bu savdo to‘siqlarining qisqarishiga va tovar aylanmasining tezlashishiga olib keladi. JSTga a’zo bo‘lish bojxona boshqaruvidagi islohotlarni, infratuzilmani takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni nazarda tutadi. Bu esa logistika jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Yirik kompaniyalar uchun muammo bojxona to‘lovlari hajmida emas, balki import va eksport tartib-qoidalarining shaffofligi va murakkabligi, import imtiyozlaridan foydalanadigan “maxsus importerlar”ning yo‘qligidadir. Bunday imtiyozlarning mavjudligi ichki bozorda narxlarni pasaytirish uchun mo‘ljallanganga o‘xshaydi, lekin amalda bu raqobatni kamaytiradi, chunki hech kim boj to‘lamaydigan kompaniya bilan bir bozorda ishlashni xohlamaydi.

JSTga a’zo bo‘lish davlat tomonidan imtiyozlarga ega bo‘lgan yirik korporatsiyalar va tabiiy monopoliyalarning biznesiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ammo bunday kompaniyalar muzokaralar jarayonining bir qismidir va ular uchun kutilmagan hodisalar bo‘lmaydi. JST kompaniyalarga o‘z biznes modellari va jarayonlarini bozorni liberallashtirishga moslashtirish imkonini beradigan o‘tish davrini nazarda tutadi. JSTga a’zolik raqobat muhitida ishlayotgan o‘rta, kichik va hatto yirik korxonalar uchun foyda keltiradi, chunki u texnologiya va eksport bozorlariga kirishni osonlashtiradi. Bu tadbirkorlar foydalana olishi kerak bo‘lgan imkoniyat oynasi bo‘ladi. Eski usulda ishlayotganlar raqobatda xorijiy kompaniyalargagina emas, mahalliy, samaraliroq va ilg‘or kompaniyalarga yutqazishi mumkin.

Fuqarolar uchun tovarlarning assortimenti, sifati va mavjudligi asta-sekin kengayadi, yangi ish o‘rinlari ochiladi. Savdoni liberallashtirish daromad o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi. Yoddan chiqarmaslik kerak bo‘lgan asosiy narsa shundaki, bu jarayonlarning barchasi bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lmaydi. JST shunchaki vosita, a’zolikning qanchalar samarali bo‘lishi turli sohalardagi hokimiyat organlari, korxonalar va mutaxassislarga bog‘liq.

Yuqori sur’atlarda iqtisodiy o‘sish kafolati

Masalaning yana bir jihatiga e’tibor qaratsak. Eksportchilarimiz uchun nozik masala — O‘zbekistonning ikki marta quruqlik bilan o‘ralgani. Juda ko‘p davlatlar dengizga tutash yoki bitta davlatni kesish bilan mahsulot ishlab chiqaruvchilar dengizga chiqishi mumkin. Ya’ni ular o‘zining eksport mahsulotlarini dunyo bozoriga arzon olib chiqa oladi. Biz esa mana shu jihatdan yutqazamiz.

Mahsulotimizni arzonlashtirish uchun birinchi o‘rinda logistika xarajatlarini kamaytirish kerak bo‘ladi. E’tiborlisi, JSTga a’zo bo‘lsak birinchi o‘rinda tariflar kamayadi. Tarif kamaysa, ko‘proq mahsulot kirib keladi. Ko‘proq mahsulot — bu ko‘proq taklif, degani. Ko‘proq taklif — bu arzonroq narx va ko‘proq tovarlar, degani. Mana shu holatda eksportchilar ham yutishi mumkin. Ya’ni JSTga a’zo bo‘lish orqali arzon mahsulotlar nafaqat iste’molchilarga, balki ishlab chiqaruvchilarga ham yetkaziladi. Xomashyo endi arzonroq kirib kela boshlaydi. Siz biron narsani ilgari 100 dollarga olsangiz, endi o‘sha narsani 80 — 70 dollarga olishingiz mumkin. Nafaqat bozorning arzonlashishiga, balki ishlab chiqaruvchilarning o‘ziga ham mahsulotning tannarxini arzonlatib, dunyo bozoriga chiqish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

JSTga a’zo mamlakat o‘z savdo sheriklari hamda ichki va xorijiy tovarlar, xizmatlar va shaxslar o‘rtasida diskriminatsiya o‘tkazmasligi kerak. Muzokara orqali mavjud savdo to‘siqlari asta-sekin bartaraf etiladi. Tashkilot qoidalari eksportni subsidiyalash va demping kabi “adolatsiz” faoliyatga to‘sqinlik qiladi. Yetarli darajada rivojlanmagan, o‘tish davrida bo‘lgan davlatlarga maxsus rejimlar taqdim etiladi. Savdo siyosatining halolligi tufayli davlatlararo savdo munosabatlarida nosog‘lom raqobatni inkor etib, sog‘lom raqobat asosida oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirishga undaydi. Yuqorida aytilganidek, JSTga a’zo mamlakatlarning o‘zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarida yuzaga keladigan har qanday kelishmovchilik faqat tinch yo‘l bilan, muzokara orqali hal etiladi.

Umuman, JSTga a’zolik O‘zbekistonning yuqori sur’atlarda iqtisodiy o‘sishining kafolati hisoblanadi. Barcha 166 ta a’zo mamlakatning bozorlariga kirish uchun teng huquqli imkoniyat paydo bo‘ladi. Raqobat muhiti yaxshilanadi va monopoliya oldi olinishiga erishiladi. Inflyatsiya darajasi kamayadi, eksportchilarimizning tashqi savdoda huquqi himoya qilinadi. Ahamiyatli jihati, bizga jahon miqyosidagi savdo siyosati bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqi beriladi.

Muhiddin PO‘LATOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori.

REKLAMA

Investor va qurilish tashkilotlari rahbarlari diqqatiga!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi PQ-4343-son qaroriga muvofiq zamonaviy talab darajasida hamda arzon uy-joylar qurish va berish hisobidan ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish hamda ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-118-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktyabrdagi 865-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Uchtepa tumani Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limi uchun xizmat xonalari va Toshkent shahar ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko‘p qavatli turarjoy binolarini “tayyor holda topshirish” shartlari bilan davlat-xususiy sheriklik asosida qurish bo‘yicha investorlar va qurilish tashkilotlari mutasaddilarini hamkorlikka taklif etamiz.

Tanlovda qatnashish istagida bo‘lgan tashkilotlar vakillaridan quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi.

Investor yoki qurilish tashkilotining tashkiliy tuzilishi bo‘yicha ma’lumot.

Investor yoki qurilish tashkilotining oxirgi uch yillik (2021, 2022 va 2023-yillar) moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot (oxirgi uch yillik F-1 va F-2 hisobotlari, pudrat shartnomalari, obyektni foydalanishga topshirish bo‘yicha nusxalari ilova qilinishi shart).

Xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumotnoma.

Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi haqida hamda ishchi xodimlari to‘g‘risida ma’lumot (soliq hisobotida ko‘rsatilgan ishchilar soni “my.mehnat.uz” bazasiga to‘g‘ri kelishini isbotlovchi hujjatlar ilova qilinishi shart).

Investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi hamda qurilish texnikasi va kichik qurilish mexanizmlari to‘g‘risida ma’lumot (texnik pasportlarning nusxalari bo‘lishi shart).

Qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejasi, 3D ko‘rinishda).

Qurilish ishlari olib borilishi, muddatlari va shartlari ko‘rsatilgan tarmoq rejasi (tasdiqlangan ko‘rinishda).

Qurilishi rejalashtirilayotgan ko‘p qavatli turarjoy binolaridagi xonadonlarning eng kamida 50 foizini ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilar uchun imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo‘yicha hisobot (tijorat taklifi).

Loyihalanayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosi joylashgan hududda qo‘shimcha ravishda alohida transformator, avtomobillar turarjoyi, chiqindi tashlash joyi hamda bolalar maydonchasi bo‘lishi shart.

Taklif uchun loyihalanayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosining qavatlari yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan maslahatlashgan holda kelishilishi lozim.

Mazkur shartlar bo‘yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari **2024-yilning 22-dekabr kuniga qadar** tanlov yuzasidan qo‘shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat qilishlari mumkin.

Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Sodiq Azimov ko‘chasi, 87-uy.
Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi.
Telefon: 71-206-44-08.

Qurilishi rejalashtirilayotgan obyekt manzili: Toshkent shahar IIBB tasarrufidagi Uchtepa tumani, 26-mavze, 23-uy orqa tarafida aholi punktlari yerlaridan maydoni 600 m2 (0,06 ga) bo‘lgan bo‘sh yer maydoni.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Milliy madaniyatimiz targ‘iboti

AQSHning Vashington davlat universitetida xalqaro forum o‘tkazildi. Unda vatandoshimiz, “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiati, Vashington davlat universiteti talabasi Sevara Sharifova ham ishtirok etib, milliy an’analarimiz, liboslarimiz hamda davlatimiz bayrog‘ini namoyish qildi.



“Barcha millat vakillari qatnashishini eshitib men ham bu tadbirni o‘tkazib yuborishni istamadim. Chet ellik kursdoshlarimizga naqadar chiroyli an’analar, liboslarimiz hamda bayrog‘imiz borligini ko‘rsatgim keldi”, deya fikr bildirgan S. Sharifova.

Namoyishdan so‘ng hamyurtimiz ishtirokchilarning O‘zbekiston hamda uning qadriyatlari haqidagi savollariga batafsil javob qaytargan.

Adliya organlarida “Konstitutsiya burchagi”

Konstitutsiya — xalqimiz xohish-irodasini ifoda etgan xalqchil hujjat. Unda belgilangan har bir modda inson sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari ta’minlanishi kafolatidir. Shuning uchun konstitutsiyaviy savodxonlik muhim ahamiyatga ega.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan Samarqand viloyati adliya boshqarmasi tomonidan barcha davlat xizmatlari markazlarida “Konstitutsiya burchagi” tashkil etildi.

Adliya organlariga tashrif buyurgan fuqarolar burchakdan o‘rin olgan qisqa axborot flayerlari, huquqiy adabiyotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bilan tanishishi, mutaxassislardan bu borada o‘zlarini qiziqtirgan savollarga, balki huquqiy masalalarda ham javob olishi mumkin.

Yurtimiz san’atida an’analar bardavom

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida “O‘zbek san’atida an’analar davomiyligi” mavzuida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi.

Unda san’atshunoslikning muhim aspektlari bilan bir qatorda o‘zining ko‘p yillik tajribalari, ilmiy izlanishlari, tadqiqotchilik hamda olimlik faoliyati bilan soha rivojiga katta hissa qo‘shgan yirik san’atshunos olimlarning ilmiy meroslarini o‘rganishga bag‘ishlangan ma’ruzalar tinglandi. Muhokamalarda san’atshunoslikning barcha turi va yo‘nalishi qamrab olindi.

Anjuman yosh san’atshunoslarning ilmiy izlanishlariga bag‘ishlangan taqdimotlar bilan davom etdi.

O‘zbekiston kubogi g‘oliblari aniqlandi

Toshkent viloyatining Angren shahrida joylashgan “Yangiobod” sport bazasida para yengil atletika bo‘yicha yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston kubogi uchun musobaqalar o‘tkazildi.



Ikki kun davom etgan musobaqalarda jami 500 nafarga yaqin yosh sportchilar g‘oliblik uchun bahs olib bordi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra umumjamoa hisobida kuchli uchlik ma’lum bo‘ldi. 1-o‘rin Toshkent shahri, 2-o‘rin Farg‘ona viloyati va 3-o‘rin Buxoro viloyati vakillariga nasib etdi.

“Xalq so‘zi”.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 01.11 Topshirildi — 02.10 1 2 3 4 5 6